


“Tasdiqlayman”
SX, SS, M va AMMB
boshlig'i → bosh mutaxassis
U. Xaydarov
« 27 » 09 2023 y.



XIZMAT KO'RSATISHGA TEXNIK TOPSHIRIQ

“Sho‘rtan GKM” MChJ SX va TN xizmati tarkibidagi “Korroziyadan himoyalash sinov laboratoriyasi”ni O‘zb. Respublikasi VM.sining 2020 yil 28 iyuldagi №456-sonli qaroriga asosan, xalqaro standartlarni qo‘llagan holda ma‘qullashdan o‘tkazishga tayyorlash.

ShGKM 2023yil

UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Nomi

“Sho’rtan GKM” MChJ SX va TN xizmati tarkibidagi “Korroziyadan himoyalash sinov laboratoriyasi”ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 iyuldagi №456-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sinov laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligini ma’qullash tartibi to’g’risidagi Nizom hamda O’zDst 3410:2019 “Sinov laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligiga qo’yiladigan umumiy talablar” davlat standarti talablariga asosan, milliy, xalqaro va xorijiy davlatlarning standartlarini qo’llagan holda ma’qullashdan o’tkazishga tayyorlash.

1.2. Xizmat olishga asos va maqsad

Asos: SX va TN xizmatining 23.06.2022 yildagi 2023 yil uchun yillik buyurtmasi.

Maqsad: Eskirgan va foydalanishdan olib tashlanayotgan davlat standartlarining o’rniga milliy, xalqaro va xorijiy davlatlarning standartlari asosida sinov laboratoriyasi faoliyatini tashkil etish.

2. XIZMAT KO’RSATISH JOYI

O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani Sho’rtan qo’rg’oni

3. XIZMAT KO’RSATISH MUDDATI

2023 yil davomida

4. XIZMAT KO’RSATISHGA UMUMIY TALABLAR

Ishni quyidagi me’riy-texnik hujjatlar talablari asosida bajarish:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to’g’risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari;
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 iyuldagi №456-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sinov laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligini ma’qullash tartibi to’g’risidagi Nizom;
- 3.O’zDst 3410:2019 “Sinov laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligiga qo’yiladigan umumiy talablar” davlat standarti;
4. “Akkreditatsiya markazi” davlat unitar korxonasining “Laboratoriyalar tomonidan texnik jihatdan malakaliligini ma’qullash tartib taomilidan o’tishga tayyorgarlik ko’rishi bo’yicha yo’riqnoma”;

5. XIZMATLAR RO’YXATI VA HAJMI

Ishni bajarish bosqichlari:

1. Sinov laboratoriyasining ish faoliyatini belgilaydigan ma’qullash sohasidagi yo’nalishlar bo’yicha va sinovlarni bajarish bo’yicha kerak bo’ladigan xalqaro va xorijiy davlatlarning standartlarini davlat reestriga kiritish. Bunda davlat reestriga kiritiladigan standartlarning soni shartnoma asosida ishni bajarish jarayonida aniqlashtiriladi.
2. Sinov laboratoriyasini texnik jihatdan malakaliligini ma’qullash tartib taomilidan o’tishga tayyorlash.



3. Sinov laboratoriyasining sinov ishlarini olib boradigan ma'qullash sohasi:
- GOST 9.502-82 KEHYAT. Suv tizimlari uchun metallar korroziyasi ingibitorlari. Korrozion sinovlar usullari;
 - GOST 9.506-87 KEHYAT. Suv-neftli muhit uchun metallar korroziyasi ingibitorlari. Himoyalash qobiliyatini aniqlash usullari;
 - GOST 9.905-82 KEHYAT. Korrozion sinovlar usullari. Umumiy talablar;
 - GOST R 9.907-2007 KEHYAT. Metallar, qotishmalar, metall qoplamalar. Korrozion sinovlaridan so'ng korroziya mahsulotlarini olib tashlash usullari;
 - GOST 9.908-85 KEHYAT. Metallar va qotishmalar. Korroziyaga qarshi chidamlilikni va korrozion ko'rsatkichlarni aniqlash usullari. Umumiy talablar;
 - GOST 1579-93 PROVOLOKA. Bukib sinash usuli.

6. XIZMAT KO'RSATISH NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH.

Xizmat ko'rsatish natijalari bo'yicha topshirish va qabul qilishga oid hujjatlar tomonlar o'rtasida imzolangan shartnomadagi tartib asosida amalga oshiriladi.

7. ISH BAJARUVCHI TASHKILOT TOMONIDAN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR RO'YXATI

1. Xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beruvchi litsenziya yoki guvohnoma.
2. Taalluqli me'yoriy hujjatlar talablari bo'yicha ishni bajarish narxlarini ko'rsatilgan tijorat taklifi.

8. ISH BAJARUVCHI TASHKILOTGA TALABLAR

1. Xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beruvchi litsenziya yoki guvohnoma hamda davlat reestriga kiritiladigan xalqaro va xorijiy davlatlarning standartlari bo'yicha o'qitish ishlarini amalga oshirishga ruxsat beruvchi litsenziya yoki guvohnoma asosida ishni bajarishi kerak.
2. Ish bajaruvchi tashkilotda ISO 9001 standarti joriy qilingan bo'lishi kerak.

9. TO'LOV SHARTLARI

Tomonlar o'rtasida imzolangan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tuzdi:

“Korroziyadan himoyalash sinov laboratoriyasi” boshlig'i:



B. Urinov

Kelishildi:

Bosh muhandis o'rinbosari - IBX boshlig'i



T. Diyorov

Z. Tursunov

SX va TN xizmati boshlig'i:

MTRBX muhandisi:

A. Ostanov

